

ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O'RGANILISHI

Zeboxon Qobilova,
Qo'qon DPI professori,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada qiyosiy tahlil asosida ko'plab ilmiy kuzatishlar olib borgan, Alisher Navoiy ijodiy merosini o'rganishga salmoqli hissa qo'shgan ozarbayjon olimlarining tadqiqotlari xususida so'z yuritiladi. Ularning navoiyshunoslik yuzasidan olib borgan tadqiqotlaridagi muhim dalillar, ma'lumotlarning ilmiy qimmatini asoslangan. Navoiyning ozarbayjon tazkirachiligiga ta'siri, istiqlol yillaridagi adabiy aloqalar masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlari: adabiy ta'sir, adabiy aloqalar, izdoshlik, navoiyshunoslik, tazkirachilik.

Abstract. This article talks about the researches of Azerbaijani scientists who made many scientific observations on the basis of comparative analysis and made a significant contribution to the study of Alisher Navoi's creative heritage. The important evidences and scientific value of the information in their researches in the field of narcissistics have been proved. The influence of Navoi on Azerbaijani tazkirism, issues of literary relations during the years of independence are analyzed.

Key words: literary influence, literary relations, follow-up, comparative analysis, tazkira.

Аннотация. В данной статье рассказывается об исследованиях азербайджанских учёных, которые на основе сравнительного анализа сделали множество научных наблюдений и внесли значительный вклад в изучение творческого наследия Алише Навои. Доказаны важные доказательства и научная ценность информации в их исследованиях в области нарциссизма. Анализируется влияние Навои на азербайджанский тазкиризм, вопросы литературных связей в годы независимости.

Ключевые слова: литературное влияние, литературные связи, последующее наблюдение, сравнительный анализ, тазкира.

Adabiyotlar tarixiga nazar soladigan bo'lsak, bir-biridan ta'sirlanmagan ijodkorni topish mushkul. Adabiy aloqalar, adabiy ta'sir va izdoshlik shoirni ijod sari yo'naltiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu borada qarindoshlik aloqalari bilan bog'langan ozarbayjon va o'zbek adabiyotida kechgan uzoq asrlik aloqalar, adabiy ta'sir jarayonini o'rganish ham muhim hisoblanadi. Zero, buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy ijodining o'zbek shoirlariga, xususan, Hazrat Alisher Navoiyga ta'siri beqiyos bo'lgan bo'lsa, Navoiydan keyin undan ilhomlanmagan biror ozar shoirini topish mushkul. Shuning uchun ham Alisher Navoiy ijodi Ozarbayjonda sevib o'qiladi, o'rganiladi. Ozarbayjon Milliy Bilimlar Akademiyasi prezidenti Isa Habibbeyli Alisher Navoiy ijodi haqida gapirar ekan: "Ozarbayjonda Alisher Navoiy Nizomiy va Fuzuliy bilan bir qatorda turadi, uning asarlari mamlakatimiz tarixchilari tomonidan qunt bilan o'rganiladi, ozarbayjon tiliga o'girilgan asarlarning asl nusxalari esa qo'lyozmalar institutida ko'z qorachig'idek asrab kelinmoqda. Ta'kidlash joizki, bizning ijod ahlimiz ham Navoiyni O'zbekistonda sevishganidek sevishadi. Navoiyni e'zozlashadi va ozarbayjon

adabiyoti rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan ustoz sifatida qabul qilishadi” [1, 14] degan edi.

Ozərbayjonda navoiyshunoslik sohasi qariyib 120 yillik tarixga ega. Bu haqida Ozarbayjon Milliy Bilimlar Akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomli Adabiyot Institutining “Ozarbayjon - Turkmaniston - O‘zbekiston adabiy aloqalari” sho‘basi mudiri Almaz Ulvi Binnatova shunday degan edi: “Faxr bilan e’tirof etishim mumkinki, Ozarbayjonda buyuk mutafakkirning “Muhokamatul- lug‘atayn” asari ozarbayjon tilida ilk marta 1902-yilda chop etilgan, uning ijodini chuqur o‘rganish esa 1907-yildan boshlangan” [2, 28]. O‘shanda “Dabiston” jurnali sahifalarida ushbu nashr muharririning Navoiy haqidagi maqolasi e’lon qilingan. Shundan keyin turli gazeta va jurnallarda shoir hayoti va ijodi to‘g‘risida tadqiqotlar paydo bo‘la boshladi.

O‘tgan asrning 20-yillarida F.Ko‘pruluzoda, B.Cho‘banzoda, S.Mumtoz, I.Hikmat singari adabiyotshunoslar Alisher Navoiy ijodini o‘rgangan bo‘lsalar, keyingi davrlarda akademik Hamid Arasli, professorlar Panoh Xalilov, Jannat Nag‘iyeva, Xalil Riza Uluturk, Komil Vali Narimono‘g‘li, Almaz Ulviy, Ramiz Asqar, Tarlon Quliyev kabi olimlar Navoiy ijodi va uning ozarbayjon adabiyotiga ta’siri masalalarini o‘rganishda samarali mehnat qildilar.

Adabiyotshunoslar Hamid Araslini Ozarbayjonda navoiyshunoslikning ravnaq topishida eng ko‘p jonbozlik ko‘rsatgan olim sifatida e’tirof etadilar. Hamid Araslining “Nizomiy va Navoiy”, “Nasimiy va Navoiy”, “Alisher Navoiy va Kishvari”, “Navoiy va Ozarbayjon adabiyoti”, “Alisher Navoiy”, “Alisher Navoiy va uning adabiy merosi”, “Navoiy va Fuzuliy”, “Buyuk shoir” singari maqolalari Navoiy ijodiy merosini Ozarbayjon adabiyotshunosligida o‘rganishda qimmatli manba bo‘lib kelmoqda.

Olimning “Navoiy va Ozarbayjon adabiyoti” [3, 78] nomli maqolasida Alisher Navoiyning turkiy xalqlar, jumladan, ozarbayjon adabiyotiga ta’siri, Hirot adabiy muhiti va uning paydo bo‘lishida Navoiyning o‘rni masalalari haqida fikr yuritilgan bo‘lib, mazkur maqola adabiy ta’sir masalalariga bag‘ishlangan muhim tadqiqotlardan biridir. Bundan tashqari, maqolada Navoiyning ozarbayjon yoshlariga e’tibori va ta’siri masalasiga alohida to‘xtab o‘tilgan. Navoiyning Hirotga tahsil olish uchun borgan talabalarga yordam berishi, ozarbayjon yoshlarining Hirot adabiy muhitiga intilishi, Tabriz adabiy muhitining shakllanishida Navoiy ijodining ta’siri kuchli bo‘lganligi alohida ta’kidlangan.

“Navoiy merosini o‘rganish tarixidan” [4, 92] nomli maqolasida olim Alisher Navoiy ijodining ozarbayjon, rus va turk olimlari tomonidan o‘rganilishiga e’tibor qaratadi, buyuk ozarbayjon shoiri Fuzuliy ijodi shakllanishida Navoiy ijodining beqiyos ta’sirini e’tirof etadi. Bundan tashqari Navoiy ijodi ozarbayjon shoirlariga

g'oyaviy jihatdangina ta'sir etib qolmasdan, mumtoz adabiyot janrlarining ozarbayjon adabiyotiga kirib borishida muhim omil bo'lganini ta'kidlaydi. Buning dalili sifatida "Majolis un-nafois" ta'sirida 1508-yilda yozilgan Sodiqbey Afshorning "Majma ul-xavos" tazkirasini keltiradi.

Hamid Arasli O'zbekistonda Alisher Navoiy tavalludi arafasida bo'lib o'tgan konferensiyalarning doimiy ishtirokchisi bo'lib kelgan, shaxsan tashrif buyurib, o'z maqolalari bilan qatnashgan. Olim 1961-yil Navoiy tavalludining 520 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot institutida bo'lib o'tgan konferensiyada O'zbekiston va Ozarbayjon adabiy aloqalari haqida ma'ruza qilgan bo'lsa, 1962-yili bo'lib o'tgan an'anaviy VI konferensiyada "Alisher Navoiy va Kishvari" mavzusida ma'ruza qiladi.

Hamid Arasli navoiyshunoslik uchun dolzarb, muhim ahamiyatga ega masalalarni ko'tarib chiqdi, bahsli masalalarda aniqlikka intildi, xolis baho berdi. Jumladan, "Sab'at ul-abhur" asari atrofidagi bahslar buning misolidir. Ba'zi adabiyotshunoslar asarni Navoiyga tegishli ekani haqida gapirsalar, ayrimlar bu fikrni inkor etgan edi. Asarning Navoiyga oidligi haqidagi ilk maqola Ogah Sirri Lavandga tegishli bo'lsa-da, Ahmad Otash tomonidan e'lon qilingan inkor etuvchi maqola bahslarga sabab bo'lgan edi. Hamid Arasli asarni va yuqorida keltirilgan maqolalarni qiyosiy o'rganib, "Sab'at abhur" Navoiyga mansub degan qarorga keladi. Olimning mazkur xulosasini adabiyotshunos Natan Mallayev "oxirgi hal qiluvchi xulosaviy fikr" deb baholaydi [10, 276].

Olimning o'zbek adabiyoti tarixi va navoiyshunoslik oldidagi xizmatlari beqiyos. Bir-biridan suv ichgan ikki xalqning shaklan, mazmunan hamohang adabiyotini o'rganish borasidagi faoliyati tahsinga sazovordir.

Hamid Araslidan keyin Ozarbayjonda Alisher Navoiy ijodini eng samarali tadqiq etgan olimlardan biri bu, shubhasiz, Jannat Nag'iyevadir. Olima Alisher Navoiyning Nizomiy Ganjaviy an'anasiga ergashgani va o'z navbatida, ozarbayjon adabiyoti tashakkulida Navoiy ijodining beqiyos bo'lganini ilmiy tadqiqotlari orqali yoritdi. O'zbek va ozarbayjon adabiyotini qiyosiy o'rganish yo'lidagi muhim vazifalarni bajardi, bu yo'nalishdagi tadqiqotlar ko'lamini kengaytirdi. Jannat Nag'iyeva haqida so'z borganda adabiyotshunoslar unga "ismi Navoiy bilan qo'shib yoziladigan olim" deb ta'rif beradilar. Mashhur adabiyotshunos Muhsin Nag'isog'lu o'zining maqolalaridan birida Jannat Nag'iyeva haqida shunday degan edi: "Ozarbayjonning mashhur adabiyotshunos olimlardan biri, filologiya fanlari doktori, professor Jannat Nag'iyeva nomi ko'pincha jahonga mashhur buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy bilan bog'lanadi. Axir, bu shunday umrining katta qismi butun turkiy dunyo faxri, buyuk shoir, olim Alisher Navoiy merosini, uning Ozarbayjondagi

qo‘lyozmalarini va shaxsini o‘rganishga, o‘zbek-ozarbayjon adabiy aloqalarini tadqiq etishga bag‘ishlangan, bu borada qimmatli asarlar nashr etgan” [11, 45].

Olima “Alisher Navoiy va Ozarbayjon adabiyoti (XV-XIX asrlar)” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasi, “Navoiy Ozarbayjonda”, “Alisher Navoiyning Boku qo‘lyozmalari” monografiyalari, shuningdek, Boku va Toshkentda ozarbayjon, o‘zbek va rus tillarida chop etilgan 60 dan ortiq maqolalari bilan navoiyshunoslikni yangi ma’lumotlar bilan boyitdi. Jumladan, olimaning “Nizomiy Navoiyni duo qiladi”, “Ikki atoqli shoir, ikki yozuvchi do‘st”, “Navoiy asarlari ozarbayjon to‘plamida”, “Navoiy va Ozarbayjon shoirlari”, “Istiqbolli an‘analarni kengaytirish kerak”, “Ozarbayjon-O‘zbekiston munosabatlarining yirik tadqiqotchisi” sarlavhali maqolalarida Navoiy ijodi, ikki qardosh xalq adabiy aloqalari yuzasidan qimmatli ma’lumotlar berilgan.

“Navoiy Ozarbayjonda” kitobiga kiritilgan “Navoiy va Fuzuliy” maqolasida olim har ikki shoir ijodini qiyosiy tahlil qiladi, ular yaratgan obrazlardagi o‘xshashliklar va falsafiy-estetik dunyoqarashlaridagi mushtarakliklarni “Layli va Majnun” dostoni misolida ko‘rsatib beradi. Har ikki shoirning “Layli va Majnun” asarini ilmiy asoslar bilan tadqiq etib, shoirlar hikoya chizig‘iga o‘zgacha tuyg‘u qo‘shganligini, shunday bo‘lsada Fuzuliy dostonida Navoiyona ohanglar sezilib turishini ta’kidlaydi. Maqola so‘ngida “Fuzuliyning “Layli va Majnun” asarini o‘qir ekanmiz, Navoiy ijodi bilan yaqindan tanish ekanligini va uni qadrlashini so‘zsiz tushunamiz” [12, 51] degan xulosaga keladi.

O‘zbekiston va Ozarbayjon mustaqillikka erishgach adabiy aloqalarimizda yangi sahifa ochildi. Ikki qardosh xalq o‘rtasida keng madaniy aloqalar yo‘lga qo‘yildi. Bu aloqalarning rivojlanishida Ozarbayjon Milliy Bilimlar Akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomli Adabiyot Institutining “Ozarbayjon - Turkmaniston - O‘zbekiston adabiy aloqalari” sho‘basi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor Almaz Ulvi Binnatovanning xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim. U 2008-yilda chop etilgan “Ozarbayjon – O‘zbek (Chig‘atoy) adabiy aloqalari” monografiyasini, 2009-yilda atoqli ozarbayjon olimlari va ijodkorlarining Navoiy adabiy merosini tadqiq etilgan maqolalarini jamlab, “Alisher Navoiy Ozarbayjon adabiyotshunosligida” nomi bilan nashr ettiradi. Bu kitob Navoiy ijodini o‘rganishdagi muhim manbalardan biri bo‘ldi. Olima 2016-yilda o‘zbek adabiyotiga oid ikki kitobini nashr ettirdi. Ular: “O‘zbek adabiyoti (adabiy portretlar, tadqiqotlar, suhbatlar)” kitobi akademik Iso Habbibeyli so‘zboshisi bilan Bokuda chop etilgan bo‘lsa, , “O‘zbek adabiyoti va Ozarbayjon (tadqiqotlar, adabiy portretlar)” kitobi pedagogika fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo‘ldoshev va filologiya fanlari nomzodi Sirdaryoxon O‘tanova so‘zboshisi bilan Toshkentda nashr etildi. Har ikki kitob navoiyshunoslik masalalariga keng o‘rin berilganligi bilan ahamiyatlidir. “O‘zbek adabiyoti va

Ozarbayjon (tadqiqotlar, adabiy portretlar)” kitobida olimlar ikki adabiyotini qiyosiy-tipologik metodda tahlil qiladi. Olimning 2021-yilda nashr etilgan “Alisher Navoiy asri va nasri”, 2022-yilda Alisher Navoiy tavalludining 581 yilligi munosabati bilan nashrga tayyorlagan “Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy: an’ana va novatorlik” nomli kitobi navoiyshunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik uchun katta ulush bo‘lib qo‘shildi.

Xulosa qilib aytganda, Hazrat Alisher Navoiy ijodini o‘rganishda “O‘zbek olimlari qatorida teng mas’uliyatga ega ekani ta’kidlangan” [4, 93] Ozarbayjon olimlarining xizmatlari tahsinga loyiq. Ularning tadqiqotlari natijasida ikki qaradosh xalq adabiyotidagi mushtarak jihatlar, adabiy ta’sir va izdoshlik masalalari qiyosiy tahlil qilindi, adabiyotshunoslikning Navoiy ijodi bilan bog‘liq sahifasi yangi ma’lumotlar bilan boyidi. O‘ylaymizki, kelajakda ozarbayjon navoiyshunosligi bo‘yicha qator tadqiqotlar olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ülvi, Almaz. Özbək ədəbiyyatı (ədəbi portret cizgiləri, araşdırmalar, müsahibələr). elmi redaktoru və ön söz müəllifi akademik İsa Həbibbəyli. - Bakı, —Elm və təhsill, 2016.
2. Almaz Ulviy. Alisher Navoiy va Ozarbayjon. Alisher Navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma’naviy - ma’rifiy taraqqiyotidagi o‘rni” konferensiya materiallari: - Navoiy, 2017.
3. Арасли Ҳамид. Навоий ва озарбайжон адабиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. — Тошкент, 1968. 3-сон. — Б. 43–43.
4. Арасли Ҳамид. Навоий меросини ўрганиш тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти. — Тошкент, 1960. 3-сон. — Б. 3–8.
5. Araslı Həmid. Azərbaycan ədəbiyyatı: tarixi və problemləri. Bakı, Gənclik, 1998, 732 səh.
6. Araslı Həmid. Böyük Azərbaycan şairi Füzuli. Bakı, EA nəşriyyatı, 1958. 312 səh.
7. Araslı Həmid. Nəvai və Füzuli // —Ədəbiyyat və incəsənət, 30 may, 1980.
8. Xəlilov Pənah. SSRİ xalqları ədəbiyyatı. II hissə. Bakı, Maarif, 1977, 360 səh.
9. Nağiyeva Cənnət. Klassiklərimizin əsərləri Nəvai kitabxanasında —Ədəbiyyat və incəsənət, 10 yanvar, 1976.
10. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. — Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
11. “Cənnət Nağiyeva. Bibliografiya” (tərtibçilər: Aydın Xəlilov və Tahirə Nurəliyeva). AMEA Məhəmməd Füzuli adına Əlyazmalar İnstitutu Elmi Şurasının 23-24 noyabr 2011-ci il tarixli qərarı ilə nəşr olunur. Bakı, “Elm və təhsil”, 2012.
12. Əlişir Nəvai. Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığında (məqalələr məcmuəsi), Bakı: Qartal, - 2009.